


QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiyligi hajmi 17463,9 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,0 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 17247,3 mlrd.so'mni (104,8 foiz), o'rmon xo'jaligida-118,8 mlrd.so'mni (92,6 foiz), baliq xo'jaliklari-97,8 mlrd.so'mni (196,5 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi

mlrd.so'm

foizda




■ mahsulotlar (xizmatlar) hajmi — o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-dekabr % da)


Xususan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (118,7 foiz), Kogon (107,6 foiz), Jondor (105,9 foiz) tumanlarida kuzatildi. Kogon shahar (38,7 foiz) va Shofirkon (101,3 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlari kuzatildi.

Qishloq, O'rmon, Ov va Baliq xo'jaliklarini aholi jon boshiga to'g'ri kelishi

Viloyat bo'yicha Qishloq, O'rmon, Ov va Baliq xo'jaliklari mahsulotlari hajmi aholi jon boshiga 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 9265,6 ming so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 130,5 foizni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida G'ijduwon tumaning ulushi 11,8 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Buxoro va Jondor tumanlari mos ravishda 11,7 foiz va 11,3 foiz ko'rstanich bilan keyingi o'rnlarni egalladi. Eng kam ulush Kogon shahar (0,1 foiz), Buxoro shahar (1,8 foiz) va Qorovulbozor (2,6 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 104,8 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 102,2 foizni va chorvachilik mahsulotlari-108,1 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,6 foizi-dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,3 foizi-femer xo'jaliklariga, 1,1 foizi-qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 8852,3 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 51,6 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. Joriy yilning yanvar- dekabr oylarida don jami 550258 tonna (86,9 foiz), paxta jami 296391 tonna (97,9 foiz), kartoshka 212625 tonna (105,8 foiz), sabzavotlar 698834 tonna (100,5 foiz), poliz 148233 tonna (102,4 foiz), meva va rezavorlar 280163 tonna (103,9 foiz), uzum 191040 tonna (101,1 foiz) yig'ib olindi.

Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida umumiy




kartoshkaning 92,1, sabzavotlarning hajmining 79,4, polizning 73,3, meva va rezavorlarning 50,0, uzumning 60,1 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (ming t)



Paxta (ming t)



Kartoshka (ming t)




Sabzavotlar (ming t)




Poliz (ming t)



Mevalar (ming t)



Uzum (ming t)



Chorvachilik




2018 yil yanvar - dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8312,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 108,1 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 48,4 foizni tashkil etdi.





2018 yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 241,3 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar- dekabriga nisbatan 8,0 foizga ko'p), 941,3 ming tonna sut (3,9 foizga), 436,6 mln.dona tuxum (20,1 foizga), 3837,0 tonna jun (o'tgan yilga nisbatan 0,9 foizga kam), 434,9 ming dona qorako'l teri (o'tgan yilga nisbatan 100,0 foiz), 1659,7 tonna pilla (10,5 foizga kam) ,1764,7 tonna asal (1,1 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiyligi hajmidan 96,3 foizi dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,2 foizi, tuxumning 57,6 foizi , junning 83,9 foizi, qorako'l terining 87,3 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.



Ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi


Go'sht (ming.t)**Sut (ming.t)****Tuxum (mln.dona)****Baliq (tonna)**

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1212,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 394,7 ming boshga, qo'y va echkilar – 2121,2 ming boshga, ot-5207 bosh, parrandalar – 4440,9 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 15,3 ming boshga (1,3 foizga), shu jumladan sigirlar – 10,9 ming boshga (2,8 foizga), qo'y va echkilar – 53,0 ming boshga (2,6 foizga), otlar – 340 boshga (7,0 foizga), parrandalar – 411,5 ming boshga (10,2 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 5,6 foizi fermer xo'jaliklari 92,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 81,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 10,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 59,6 foizi dehqon (shaxsiy





yordamchi) xo'jaliklariga, 29,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qoramollar va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2019 yil 1 yanvar holatiga


Yirik shoxli qoramol
(*ming.bosh*)




shu jumladan sigirlar
(*ming.bosh*)



Qo'y va echkilar (ming.bosh)



Parrandalar (ming.bosh)



**Qishloq xo'jaligi va
ekologiya
statistikasi bo'limi**

• +99865-223-68-82
• +99871-230-83-07